

QO‘YLARNING JUN MAHSULDORLIGI

Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d., (PhD) dotsenti*

Aminova Shoira Furqat qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti*

Annotatsiya Qo‘ylarning jun mahsuldorligiga juda ko‘p faktorlarga bog‘liq. Ulardan eng asosiylari qo‘ylarning yoshi, zoti, nasli, jinsi hisoblanadi. Bulardan tashqari, jun maqsuldorligi boshqa ko‘p tashqi faktorlarga bog‘liq bo‘lib, ularidan qo‘ylarni boqish va asrash sharoiti asosiy faktordir. qo‘ylar to‘ydirib boqilmasa yoki oqsilga bo‘lgan talabi etarli darajada qondirilmasa, ularidan qirqib olinadigan junning miqdori va sifati pasayib ketadi. qo‘ylarni boqish sharoiti keskin o‘zgarsa, jun tolalari juda ingichkalashib ketadi va noziklashadi, natijada nuqsonli bo‘lib qoladi.

Kalit so‘zi: Jun mahsuldorligi, zot, nasili qo‘ylar, teri-sut, dag‘al jun, mayin jun, yarim mayin jun, qo‘ylarning podasi.

Аннотация: Продуктивность овец зависит от многих факторов. Важнейшими из них являются возраст, порода, порода и пол овец. Кроме того, продуктивность шерсти зависит от многих других внешних факторов, из которых главным является состояние кормления и содержания овец. если овец плохо кормить или их потребности в белке не удовлетворяются в достаточной степени, количество и качество состриженной у них шерсти снизится. если условия кормления овец резко меняются, волокна шерсти становятся очень тонкими и тонкими, что приводит к дефектам.

Ключевые слова: выход шерсти, порода, чистопородные овцы, шкурно-молочные, грубая шерсть, тонкая шерсть, полутонкая шерсть, овечье стадо.

Annotation: Sheep productivity depends on many factors. The most important of them are the age, breed, breed, and sex of the sheep. In addition to these, the productivity of wool depends on many other external factors, of which the condition of feeding and keeping sheep is the main factor. If the sheep are not fed well or their protein requirements are not sufficiently met, the quantity and quality of wool sheared from them will decrease. When sheep feed conditions change dramatically, wool fibers become very thin and thin, resulting in defects.

Key words: wool productivity, breed, pedigree sheep, skin-milk, coarse wool, fine wool, semi-fine wool, herd of sheep.

Hozirgi vaqtida ho‘jaliklardagi quylarning 85% dan ko‘prog‘ini eng qimmatli mayin va yarim mayin junli quylar tashkil etadi. Shuningdek, sermahsul qorakul, romanov va boshqa qimmatli dag‘al junli quy zotlari ancha kupaydi. Mayin va yarim mayin jun etishtirishda RSFSR, Qozog‘iston, Ukraina, Qirg‘iziston va Ozarbayjon respublikalari assosiy o‘rinda turadi.

Ko‘pchilik rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda to‘qimachilik sanoati, asosan, chetdan keltirilgan homashyo hisobiga ishlaydi, bizda esa o‘zimizda etishtiriladigan jun hisobiga mahsulot ishlab chiqariladi. Lekin jun etishtirish bo‘yicha erishilgan darajada unga bulgan ehtiyojni qondirmaydi, shunga ko‘ra, kelajakda jun etishtirishni chorva mollari hisobini va qo‘ylarning mahsuldorligini oshirish hisobiga mo‘ljallanadi. Qo‘ylar podasini ko‘paytirishga qaratilgan tadbiriylar sistemasida bu tarmoqni to‘g‘ri tashkil etish, qo‘ylarni boqish va asrash sharoitini yanada yaxshilash, podaning ratsional strukturasi muhim rol o‘ynaydi. Bu borada qo‘ychilikning em-xashak bazasini mustahkamlashga alohida ahamiyatga ega.

Teri-sut olinadigan va dumbali qo‘ychilikni rivojlantirishda ham katta ahamiyat berilmoqda.

Qorako‘l qo‘ylarning 5mln boshdan ko‘prog‘i respublikamizda boqiladi yoki boshqacha aytganda, O‘zbekistonda boqiladigan qo‘ylarning 70% ni qorako‘l qo‘ylar tashkil etadi. O‘zbekistonda quydag‘i ishlar amalga oshiriladi:

yangi yaylovlarni suv bilan ta’minlash;

mallar sug‘oriladigan shoxobchalarni qayta ko‘rish, yovvoyi o‘t ekish yo‘li bilan serhosil yaylovlarni barpo etish va eski yaylovlarni yaxshilash;

atrofni o‘ralgan yangi madaniy yaylovlarni tashkil etish, vohalarni sug‘orib, erlarning melioratsiya holatini yaxshilash.

Hisoblarga ko‘ra, yaylovlarning mahsuldorligini oshirish yo‘li bilan O‘zbekistonda qorako‘l qo‘ylar sonini hozirgi 5 mln boshdan 7 mln boshga etkazish mumkin. Bunda qorako‘l qo‘ylarni ixtisosdashtirilgan xo‘jaliklarda boqish maqsadga muvofiq bo‘lib, xar qaysi xo‘jalikda ular soni 60-70 ming boshga etkazish kerak bo‘ladi.

O‘zbekistondagi qoroko‘l bo‘lmagan qo‘ylarni, asosan, dumbali, juda oz qismini esa mayin va juda mayin qo‘ylar tashkil etadi, ular go‘sht-jun etishtirish maqsadida respublikamizning tog‘li va tog‘oldi zonasida ko‘paytiriladi. Bu xil zotga mansub qo‘ylar respublikamizdagi jami qo‘ylarning 30% tashkil etadi.

O‘zbekiston, Tojikistonning tog‘li va tog‘oldi zonalarida go‘sht-yog‘ mahsuldorligi bo‘yicha mashhur bo‘lgan hisori va jaydari qo‘y zotlari keng tarqalgan. Jaydari qo‘y zotlari faqat O‘zbekistonda go‘sht resurslarini ko‘paytirish maqsadida boqiladi. Bu qadimiy qo‘y zotlarini sof holda urchitish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda qo‘ychilikni go‘sht-jun yo‘nalishi bo‘yicha rivojlantirish va buning uchun qo‘ychilikning yangi sohasini barpo etish bo‘yicha maqsadga muvofiq ish olib borilmoqda.

Respublikamizda kelajakda qo‘ychilikni yanada rivojlantirish xo‘jalikni yuritish texnologiyasining intensiv formalariga o‘tishni talab etadi. Respublikamizda kelajakdagi ilg‘or qoraqo‘ychilik xo‘jaliklarining (“qarnab” davlat naslchilik zavodi va boshqalarning) tajribasiga ko‘ra, qo‘ylarni asrash va boqishning yangi progressiv texnologiyasini joriy etish katta samara beradigan tadbirdardar biri hisoblanadi.

Qo‘ychilikni intensivlashtirish borasidagi asosiy tadbiriy choralar yaylovlarga qo‘srimcha ravishda em-xashak bo‘ladigan o’tlar ekish yo‘li bilan mustahkam oziq bazasi yaratish, almashlab ekish dalalarida er osti suvlaridan foydalanish bilan qo‘srimcha em-xashak etishtirish, yaylovlardan ratsional foydalanish va yaylovlarni uchastkalarga bo‘lib foydalanish sistemasini joriy etishdan iborat. Tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, qo‘ylarni madanilashtirilgan yaylovarda boqish, ya’ni yaylovda o’tlatish bilan birga ularga qo‘srimcha ravishda dag‘al va kontsentrat oziqlar berish katta samara beradi.

Chorvachilikni samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishning boshqarishni yaxshilash, xo‘jalik, ferma, otarlarni ratsional kattaligini belgilash va mehnat unumdarligini oshirish talab etiladi. Ilg‘or xo‘jaliklar tajribasidan ma’lum bo‘lishicha, intensivlatirish uchun sariflanadigan kapital mablag‘ juda tez orada, ya’ni 2-5 yil ichida qoplanadi.

Qo‘y zotlari.

Zotlar klassifikatsiyasi

Hozirgi vaqtida dunyoagi hamma mamlakatlarda qo‘ylarning 350zoti, va zot gruppalari urchitiladi. Bu zotlarning ayrimlari mahsuldorligi buyicha ham, biologik xususiyatlari bo‘yicha ham bir-biriga o‘xshaydi, boshqalari esa keskin farq qiladi. Bu xususiyatlar zotlarni alohida gruppalarga ajratishga, ya’ni klassifikatsiyalashga asos bo‘ladi.

1. Natuzius, keyinchalik N. P. Chirvinskiy va M. F. Ivanovlar qo‘ylar dumining uzunligi va shakli bo‘yicha zotlarning zoologik klassifikatsiyasini ishlab chiqdilar. Ana shu klassifikatsiyaga muvofiq, barcha zotlar besh gruppaga: ingichka kalta dumli qo‘ylar, ingichka uzun dumli qo‘ylar, yog‘dor kalta dumli qo‘ylar, yog‘dor uzun dumli qo‘ylar va dumbali qo‘ylarga bo‘linadi.

Ingichka kalta dumli qo‘ylarning dumi sakrash bo‘g‘imigacha etmaydi va yog‘ bosmagan, uzunligi 14-15sm bo‘ladi. Bu gruppaga romanov va shimol kalta dumli qo‘y zotlari kiradi.

Ingichka uzun dumli qo‘ylar zoologik klassifikatsiyada eng ko‘p tarqalgan qo‘ylar gruppasi tashkil etadi. Ular dumining uzunligi 35sm dan 70sm gacha etadi va pastki sakrash bo‘g‘imigacha osilib tushadi, lekin yog‘ bosmagan bo‘-ladi. qo‘ylarning bu xildagi dumi, odatda, qo‘zilik vaqtida kaltalashtiriladi. Bu gruppaga Gruziyaning yog‘dor dumli mayin junli va yarim mayin junli qo‘ylari hamda ayrim dag‘al va yarim dag‘al junli, yaxshilanmagan qo‘y zotlaridan tashqari hamma mayin junli qo‘y zotlari kiradi.

Yog‘dor kalta dumli qo‘ylarga buryatiya, qulundin va ba’zi boshqa qo‘y zotlari kiradi. Ularning kalta dumida har xil shaklda va hajmda yog‘ qatlami to‘planadi.

Yog‘dor uzun dumli qo‘ylarning dumi sakrash bo‘g‘imidan pastgacha osilib tushadigan va yog‘ to‘planadigan bo‘ladi. Bu gruppaga qorako‘l va boshqa zot qo‘ylar kiradi.

Dumbali qo‘ylarning dumi juda kalta (5-8 umurtqali bo‘lib), dum umurtqalar atrofida juda ko‘p yog‘ to‘planadi. Bu gruppaga hisori, edilboy, jaydari va saradji qo‘y zotlari kiradi.

Amalda qo‘ylarning asosiy mahsuldorligi bo‘yicha M. F. Iva-nov ishlab chiqqan xo‘jalik yoki ishlab chiqarish klassifikatsiyasidan foydalilaniladi. Ana shu klassifikatsiyaga muvofiq urchitiladigan hamma qo‘y zotlari jun qoplaming xarakteri bo‘yicha 4ta gruppaga bo‘linadi. Bu gruppalarning har qaysisi mahsuldorlik turiga qarab gruppachalarga bo‘linadi.

Mayin junli qo‘y zotlari:

Serjun — groznen, stavropol, salsk, ozarbayjon tog‘ merinoslari, junli sovet merinosi. Jun-go‘shtdor-sovet merinosi, askaniysk, kavkaz, oltoy va janubiy qozog‘iston qo‘y zotlarni.

Go‘sht-jundor-prekos, qozoq mayin junli qo‘ylari, qozok arxar merinosi, zabaykal, krasnoyarsk, dog‘iston, vyatsk, gruziya mayin junli, qo‘ylari, janubiy ural qo‘y zotlari.

Yarim dag‘al junli qo‘y zotlari:

Jun-go‘shtdor — sigay, gruziya yarim mayin junli qo‘ylari.. Go‘sht-yog‘dor: hisori, edilboy, jaydari, dumbali qozok va marsh qo‘ylari.

б) kalta junli latviya qora boshli, litva qora boshli, gorkiy, gempshir, shropshir, oksfordshir qo‘ylari.

в) korridel tip junli-shimoliy kavkaz va tyanshan qo‘ylari.

Yarim dag‘al junli qo‘y zotlari:

Saradji va tojik qo‘ylari (go‘sht-yog‘dor va jundor qo‘ylar).

Dagal junli qo‘y zotlari:

Po‘sibnibop-romanov, kalta dumli shimoliy va qulundin qo‘ylari.

Barra teribop: qorako‘l, sokolsk va reshetilovsk qo‘ylari. Go‘sht-yog‘dor: hisori, edilboy, jaydari, dumbali qozoq va qirg‘iz qo‘ylari.

Go‘sht-jundor: voloshsk, kuchugur, bokinsk, mixnovsk, cherkas va bakursk qo‘ylari. Go‘sht-jundor va sersut: tushinsk, balbas, mazex, karachaevsk, bozax, lezgin, imieretinsk, tog‘li dog‘iston (gunibsk, andiysk), torli karpat surkana va buryat va dorvoz qo‘ylari.

XULOSA

Chorvachilikka ixtisoslashgan va fermer xo‘jaliklarida tayyorlanayotgan junlar sifatini yaxshilash maqsadida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ifloslangan junlarni xo‘jaliklar jun qirqish punktlarida saralash va shu arning o‘zida birlamchi tozalash, tayyorlanayotgan junning sifatini va salmog‘ini oshiradi.

Shuni takidlab o‘tish kerakki, respublikada qo‘y va echkilar tuyog‘i yil sayin ko‘payib bormoqda. Dag‘al junli qo‘ylarning asosiy qismini qorako‘l qo‘ylari tashkil qilgan. Xukumatimizning sohani rivojlantirishga qaratilgan qarorlarida jun tayyorlash bazasini har tomonlama rivojlantirish va jun xom ashyosi tayyorlashni ko‘paytirish ko‘rsatib o‘tilgan. Respublikamizning iqlimi va yaylov sharoiti quychilikni rivojlantirishga juda qulay bo‘lib, kelgusida bu sohaga yana ham ko‘proq e’tibor berilishi ko‘zda tutilmoqda.

Jun tolalari kigizlanish xususiyatiga ega, barcha boshqa tolalar bunday xususiyatga ega emas. Jun tolalari odam organizmi sog‘ligi uchun muhim bo‘lgan ultrabinafsha nurlarini o‘tkazishi, bo‘yoqlarni o‘zida yaxshi tutishi, yuqori darajada qayishqoqligi kabi muhim xossalarga ega. Jun tolalarining chidamliligi, ingichkaligi ulardan bir xil yo‘g‘onlikdagi temir simchaning mustahkamligiga to‘g‘ri keladi.

Jun quyosh radiatsiyasiga, issiqlikga, namlikga bardoshli hamda sovuq o‘tkazmaydi, sekin yonadi, shovqindan, elektr tokidan va tebranishdan yaxshi himoyalovchidir. Demak kompleks xususiyatlariga ko‘ra, jun tolalari boshqa xil tolalarga nisbatan afzal hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Yusupov S.Y, Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand, 1998. –B.16 –17.
2. Yusupov S.A. Maxalliy jun tolalariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish: Dis.kan.tex–T: 2004, 194-b.
3. Yusupov S.Y, Axmedov F. O‘zbekistonda qorako‘lchilikning holati va navbatdagi vazifalar // Zooveterinariya. –T: 2011, №8.-B.34-35.
4. Sherov E., Inoyatov A.I. Turli jun konstitusiya tipidagi qorako‘l qo‘ylarning jun mahsuldorligi // Zooveterinariya, Toshkent, 2014. №11.S.29-30.
5. To‘xtarov R., Xasilbekov A. Junga birlamchi ishlov berishda namlikning jun sifatiga ta’siri / Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand 2015. –B.178-180.